



# International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies

*International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies* is a double-blind peer-reviewed, open-access journal published to reach excellence on the scope. It considers scholarly, research-based articles on all aspects of economics, finance and accounting. As an international congress aimed at facilitating the global exchange of education theory, contributions from different educational systems and cultures are encouraged. It aims to provide a forum for all researchers, educators, educational policy-makers and planners to exchange invaluable ideas and resources.

## DAVLAT TOMONIDAN QISHLOQ TURIZMINI QO'LLAB-QUVVATLASHNING XORIJ TAJRIBASINI TAHLILI

**Mansurov Jamshid Isroilovich**

*Iqtisodiyot va pedagogika universiteti Samarqand kampusi, mustaqil tadqiqotchisi*

Tel.: +998937723350

### ABSTRACT

Ushbu maqolada Davlat tomonidan qishloq turizmini qo'llab-quvvatlashning xorij tajribasi va uni rivojlantirish yo'nalishlari, qishloq turizmi turlarining o'ziga xos xususiyatlari, rivojlanish tendentsiyalari tahlil etilgan.

### KEYWORDS

qishloq turizmi, turizm, qishloq, aholi, investisiya, malakali kadr, xorij, kredit-karta, klaster, savdo, ovqatlanish xizmati, eksport, davlat .

### INTRODUCTION

Qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat va to'qimachilik sanoati O'zbekistonning iqtisodiyoti va aholisining farovonligi uchun ulkan ahamiyat kasb etadi. Mamlakat yalpi ichki daromadining uchdan bir qismidan ortiqrog'i qishloq xo'jaligining hissasiga to'g'ri keladi. Sohada 3,5 milliondan ortiq aholi ish bilan band, va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chet elga sotishdan tushgan tushumlar O'zbekistonning umumiyligi eksport daromadlarining 25 foizigacha tashkil qiladi. Qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasi shu bilan birga butun mamlakat bo'y lab ko'plab qishloqlar va kichik shaharlarning iqtisodiy o'zagi hisoblanadi, zero u joylarda qishloq xo'jaligidan tashqari boshqa muqobil daromad manbalari mavjud emas.

O'zbekistonning mehnat salohiyati ulkan. Aholi soni bo'yicha u dunyo mamlakatlari o'rtasida 43-chi o'rinni<sup>1</sup>, MDH davlatlari o'rtasida esa 3-chi o'rinni<sup>2</sup> egallaydi. Ulkan mehnat salohiyati mavjud bo'lgan O'zbekiston uchun aynan turizm qishloq aholi hayot farovonligini yuksaltirishning bosh omili hisoblanadi.

O'zbekistonda davlat tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar doirasida turizm mamlakatning ustun sur'atlar bilan rivojlanishi lozim bo'lgan eng istiqbolli strategik tarmoq sifatida belgilangan. Yuqoridagi paragraflarda ta'kid etganimizdek davlatning qishloq turizmini rivojlanishirish keng qamrovli tushuncha hisoblanadi. Tadqiqotchilarining fikriga ko'ra, umumiy holda u mamlakatni yoki alohida mintaqalarni rivojlanishirish manfaatlari yo'lida qishloq turizmi bozorida turistik xizmatlarga talabning hajmiga ta'sir etuvchi omillar bilan uning

<sup>1</sup> <https://nonews.co/directory/lists/countries/population>

<sup>2</sup> <https://www.advantour.com/rus/uzbekistan/people.htm>

taklifini ta'minlab beruvchi omillarni muvofiqlashtirish, talab va taklif hajmini kengaytirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etishdan iborat.

Asosiy qism: Milliy turizm iqtisodiyoti tarkibida qishloq turizmi – bu nafaqat qishloq joylarida turistlarga, mehmonlarga turxizmat ko'rsatishni tashkil etish, balki davlat daromadlarini ko'paytirish manbai hamda yalpi ichki mahsulot hajmini oshirishning muhim omilidir. Qishloqning turistik salohiyatdan unumli foydalanayotgan mamlakatlarning ilg'or tajribasi ushbu tarmoqni aholi daromadlarini ko'paytirish va uning hayot farovonligini yuksaltirish kabi muhim muammolarini hal etishda samarali foydalanish mumkinligidan dalolat beradi. Shu sababli dunyoning ko'p mamlakatlarida qishloq turizmi yo'nalishida, turistik xizmatlarning hajmini oshirish va sifatini yaxshilash masalalari davlat makroiqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangan. Shunisi diqqatga sazovorki, yangi O'zbekiston strategiyasida qishloq turizmini rivojlantirish, uning salohiyatini yuksaltirishga davlat tomonidan kuchli e'tibor qaratilayotgan, ushbu sohani davlat qattiq qo'llab-quvvatlayotgan mamlakatlardagina qishloq turizmi yo'nalishi tez sur'atlar bilan rivojlanish, jahon bozorida raqobatbardosh bo'lishi mumkin. Buning asosiy sababi shundaki, qishloq turistik makonning jozibadorligi ko'p jihatdan mamlakatda davlat tomonidan amalga oshirilishi mumkin bo'lgan ishlar bilan bog'liq: turistlarning xavfsizligi, turistlar xizmatlarini rasmiylashtirish, yo'l-transport va axborot kommunikasiyalari va boshqalar.

Davlat nafaqat qishloq turizmini rivojlantirish, balki turli yo'llar bilan investision faoliyatning o'zini tartibga solish vositasida ham yo'nalishga jalb etilgan investision, innovasion resurslar iqtisodiy samaradorligiga kuchli ta'sir ko'rsatishini alohida ta'kidlamoqchimiz.

Shuningdek, qishloq turizmining rivojlanishiga tashqi ta'sir ko'rsatishda byudjet hisobidan davlat investisiyalari ham muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, turizm bozorida turistik xizmatlarga talab susayib ketgan paytlarda xususiy investisiyalar keskin qisqaradi, inqiroz yuzaga keladi. Ana shunday vaziyatda davlat investisiyalar orqali inqirozga va uning eng salbiy oqibati – ishsizlikka qarshi kurashadi, turistik korxonalar investision salohiyatni yuksaltirishga yordam beradi.

Istiqbolda qishloq turizmini rivojlantirish bo'yicha oldiga quyilgan muhim strategik vazifalarning bajarilishi davlatning va uning turizmni rivojlantirishga mas'ul bo'lgan tuzilmalarining faol ishtirokisiz amalga oshmaydi. Qishloq joylarda mehnat taqsimoti chuqurlashib borayotgan murakkab iqtisodiy vaziyatda hududiy va milliy milliy turizm yo'nalishlarining proporsional rivojlanishini ta'minlash, ularning o'zaro hamkorligini muvofiqlashtirishga erishish, qishloq ijtimoiy infratuzilmani jadal rivojlantirish zarurati, to'lov balansini boshqarish kabi muhim vazifalarning bajarilishini davlatning faol ishtirokini taqozo etadi. Davlatning qishloq turizmini rivojlantirish va nazorat qilish funksiyalari turizm oldida turgan murakkab vazifalarning muvaffaqiyatli bajarishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Bundan tashqari, globallashgan jahon bozorida raqobat kurashi keskin tus olgan hozirgi og'ir vaziyatda davlatning tarmoqni iqtisodiy qo'llab-quvvatlash siyosati ham o'ta muhim ahamiyat kasb etadi.

Ana shulardan kelib chiqqan holda, turizm sohasini qishloq joylarda sayyoqlik yo'nalishini rivojlantirish va uni tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha davlatning asosiy vazifalarini belgilab berishni lozim deb topdik. Bular:

ichki va tashqi turizm uchun mamlakatda qulay muhit yaratish, mamlakat hamda turistik obyektlar ayniqsa, qishloq turizmi turistik salohiyatini va jozibadorligini oshirish chora-tadbirlarini amalga oshirish;

qishloq turizmi sohasiga oid qonuniy-me'yoriy hujjatlarni takomillashtirish;

qishloq turizmiga daxldor korxonalar va fermer xo'jaliklar faoliyatini o'zaro muvofiqlashtirish, qishloq turizm infratuzilmasini rivojlantirish;

qishloq turizmi sohasiga oid davlat siyosati tamoyillarini ishlab chiqish va ularni hayotga tadbiq etish;

qishloq joylarda innovasiya va innovasion faoliyatni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish orqali qishloq turistik xizmatlar bozorini kengaytirishga va ularning jahon bozorida raqobatbardoshligini oshirishga ko'maklashish.

Davlatning qishloq turizmini qo'llab-quvvatlash va uni rivojlantirish siyosatini amalgalashirishda axborot texnologiyalari va internet muhim rol o'ynashi mumkin. Misol tariqsida Fransiya davlati tajribasini keltirish mumkin. Bunday holatni o'tgan asrda yengil sanoatning gazmolchilik turi bilan raqotbardoshlikka ega Fransiya mamlakati misolidagi dalillar ko'rsatmoqda. 1971 yilda Fransiyada qishloq turizmini milliy miqyosda boshqarishni muvofiqlashtiruvchi "Qishloq turizm" uyushmasi tashkil etildi. 1986 yilda 8 million fransuz (barcha ta'til beruvchilarning 1/4 qismi) qishloq joylarda ta'tilni afzal ko'rishgan va 1987 yilda 9,2 million fransuz va 5,2 million chet elliklar shu tarzda dam olishgan. Ularning 27 foizi nemislar, 25 foizi inglizlar, 25% belgiyaliklar, 14% gollandiyaliklar va 9% boshqa millatlar vakillaridan iborat

bo'lgan.<sup>3</sup>

Mamlakatning geografik tuzilishi jihatidan qishloq joylar shaharlarga nisbatan mamlakatning 80 foizini egallagan bo'lib, o'sha davrda Fransiyaning deyarli barcha bo'limlari qishloq turizmi bilan qamrab olinganligini ko'rsatadi. Natijada Fransiyada qishloq turizmining rivojlanishi bilan qishloqda tadbirkorlik faoliyati sezilarli darajada jonlanishiga, xususan, ko'chmas mulkni sotib olish va sotish aktlari ko'payishiga olib keldi. Fransiyada qishloq turizmini shakllanish va rivojlanishi bilan bog'liq jarayonini nafaqat mamlakat bo'yab, balki alohida mintaqalar darajasida ko'rib chiqishni maqsadga muvofiq deb topdik. Krous bo'limida qishloq turizmi yozda qishloq aholisini qo'shimcha ish bilan ta'minlash uchun imkoniyatlar ochdi. Bo'limning eng mashhur dam olish maskanlari – tabiiy suv havzalari hisoblanadi. Mahalliy hokimiyatlar qirg'oq hududlarida uylar qurishni ko'paytirishni va yozda dam olish, baliq ovi musobaqalarini, bolalar uchun turli tadbirlarni tashkil etadigan sun'iy qumli plyajlarni yaratishni rag'batlantirgan va bugungi kunda ham ushbu jarayonni davom yettirib kelmoqdalar. Qishloqdagagi dam oluvchilarning asosiy mashg'ulotlari – piyoda yurish, suvda qayiqda yurish va otda sayr qilish hisoblanadi. Bugungi kunga kelib qishloq turizmi an'anaviy dengiz kurortlari yaqinidagi turistik yo'naliishlar sonining sezilarli darajada ko'payishiga turtki bo'ldi. Shunday qilib, so'nggi yillarda Vende sohilida turizmni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyati yangi sohil bo'yi hududlarini "dam olish aylanmasi" ga kiritish bo'lib, bu hududlardagi tabiiy va madaniy yodgorliklarning tiklanishiga hissa qo'shdidi.

Turistlar, albatta, ma'lum bir aholi punktlarida dam olishadi, shuning uchun Fransiyada qishloq turizmini rivojlantirish bo'yicha namunaviy qishloqlardan birida 1100 hektar maydonda uchta golf maydonchasi, uchta birinchi darajali mehmonxona, 1050 ta xususiy uylar, balneologik sanatoriya mavjud. Fransuz qishloq turizmining o'ziga xos xususiyati shundaki, sayyoohlari tabiiy obektlarni tanlab, saqlanib qolgan eski qishloqlarda dam olishni afzal ko'rishadi. Fransiyada qishloq turizmni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash quyidagi sxema orqali amalgalashiririldi. Dastlab 1982 yilda turistik bozorning MIS (Market Information Sistem) axborot tizimi yaratildi. Birinchi bosqichda u Fransiya turistik kengashi ehtiyojlari uchun xizmat qildi. Keyinchalik axborot tuzilma xizmatlaridan boshqa iste'molchilar ham foydalananish imkoniyatiga ega bo'ldilar. MIS tarkibidagi 11 yo'naliishdagi axborotlar butun tarmoq faoliyatini qamrab oldi. Har bir yo'naliish muayyan mavzuga oid boy ma'lumotlar berishga mo'ljallangan bo'lib, turizmni rivojlantirishga, turmahsulotlar iste'molchilarini ko'paytirishga xizmat qiladi. Masalan, "Marketing rejalari" nomli yo'naliishi barcha marketing rejalari, reklama kompaniyalari, fan,

<sup>3</sup>

turistik kengayish to‘g’risida qimmatli axborotlarni taqdim qiladi. “Xaridorlar va OAV” yo‘nalishida turoperatorlar, turagentlar, ularning manzili, OAV ro‘yxati va boshqa turmahsulot targ‘ibotchilarini to‘g’risida qimmatli axborotlarni o‘zida mujassamlashtirgan. MISning boshqa yo‘nalishlarida statistik ma’lumotlar, seminar va uchrashuvlar to‘g’risida, mijozlar haqida va boshqa zarur axborotlarni topish mumkin.

Fransiya va boshqa rivojlangan G’arb mamlakatlari tajribasidan kelib chiqqan holda shuni ta’kidlamoqchimizki, qishloq turizmi xizmatlari sohasini rivojlantirishda davlat tomonidan ko‘rsatilgan yordamning roli benihoya muhim ahamiyatga ega.

Dunyoning boshqa mamlakatlarida ham kompyuterlarning va internet tarmog’ining vujudga kelishi natijasida davlat ishtirokida turistik yo‘nalishlarda marketing bilan shug’ullanuvchi tashkilotlar – TYMT (Angliyada – *Visit Britain*, Ispaniyada – *Tourespaña*, Polshada – *Polska Organizacja Turystyczna* va boshqalar) vujudga keldi va o‘z mamlakatida turizmni rivojlantirishga katta turtki berdi.

Davlat tomonidan ta’sis etilgan ushbu tashkilotlar (TYMT) turistik xizmat sotuvchisi bilan uning iste’molchisi o‘rtasida vositachilik xizmatlarini davlat mablag’lari hisobidan amalga oshiradilar. Ushbu bepul xizmatlar iste’molchilarga turmahsulot, uning sifatini reklama qilishga xizmat qiladilar.

Qishloq turizmini faoliyatni davlat tomonidan rivojlantirish siyosatining asosiy yo‘nalishlari O‘zbekiston Respublikasining yangi “Turizm to‘g’risida”gi Qonunining 2-bobida “Turizm sohasini tartibga solish”<sup>4</sup>: 6-modda (4-Ilova), 7-modda (5-Ilova), 8-modda (6-Ilova)larda bilvosita aks ettirilgan.

Davlatning qishloq turizmini rivojlantirish siyosati maqsadi, tamoyillari va asosiy yo‘nalishlarini tahlil qilish asosida, ularda umumlashgan holda quyidagi ikkita bosh yo‘nalishlarni ajratib ko‘rsatishni lozim topdik:

- birinchi, qishloq turistik mahsulot va xizmatlarga talabni hamda ularning taklifini rag’batlantirish chora-tadbirlarini qo‘llash yo‘li bilan turistik bozorni kengaytirish, turizm sohasida yaratiladigan turistik mahsulot hajmini oshirish.
- ikkinchi yo‘nalish, bolalar, yoshlar, keksalar, nogironlar va aholining boshqa nochor qatlamlari bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat himoyasiga ehtiyoj sezadilar. Davlatning faol aralashuviziz bozorning o‘z-o‘zini tartibga solish mexanizmlarining kuchli ta’siri ostida aholi turli toifalari o‘rtasida moddiy tabaqlanish yanada chuqurlashadi, iqtisodiy nochor aholi qatlamlarining turmush darajasi esa yanada yomonlashadi.

**Xulosa :** Yuqorida bayon etilganlardan bizning ilmiy xulosamiz shundan iboratki, har ikkala holatda ham turizmga jalb etilgan investision resurslardan foydalanish samaradorligining o‘sishiga erishiladi. Birinchi yo‘nalish turizmni rivojlantirishni intensivlashtirish, resurslarni tejash, fan va ta’limni rag’batlantirish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash orqali sohaga jalb etilgan investisiyalarning iqtisodiy samaradorligini oshiradi. Ikkinchi holatda esa turizmnинг ijtimoiy funksiyalarini kuchaytirish orqali investision resurslardan foydalanish ijtimoiy samaradorligini oshirishga erishiladi.

## REFERENCES

1. Alojonovich, R. R., & Sardorbek, O. (2021). THEORETICAL BASES OF INCREASE OF ECONOMIC EFFICIENCY OF USE OF RESOURCE SAVING TECHNOLOGIES IN THE COTTON INDUSTRY. International Engineering Journal For Research & Development, 6(ICDSIIL), 5-5.
2. I.S. Tuxliyev, R.Hayitboyev, N.E.Ibodullayev, R.S.Amriddinova Turizm asoslari: O‘quv qo‘llanma – S.: SamISI, 2010- 247 b.

<sup>4</sup> Ўзбекистон Республикасининг ЎРҚ-549-сонли “Туризм тўғрисида”ги Конуни. 2019 йил 18 июл. [Электрон ресурс]. – Кириш йўли: <https://lex.uz/docs/4428097>

3. Muane F. Selskiy turizm / F. Muane. - Parij: Agrikol, 2012. - 430 s.
4. Wanda George E.Rural Tourism Development: Localism and Cultural Change (Tourism and Cultural Change) / E. Wanda George, H. Mair, D.G. Reid. -Bristol, Buffalo, Toronto: Channel View Publications, 2009. - 288 p.
5. Chudnovskiy A. D.Upravleniye potrebitelskimi predpochteniyami v sfere otechestvennogo turizma i gostepriimstva i osnovnyye napravleniya realizasii turistskogo produkta: uchebnoye posobiye / A.D. Chudnovskiy, M.A. Jukova. - M.: Federalnoye agentstvo po turizmu, 2014. - 304 s
6. Gvarliani T. Ye. Selskiy i agrarnyy turizm kak spesificheskiye vidы turizma / T.Ye. Gvarliani, A.N. Borodin // TEKKAYeSOMMTSSh. - 2011. - 9 T. № 4. - S. 61-65.
7. <https://www.macrotrends.net/countries/UZB/uzbekistan/tourism-statistics>
8. www. Lex.uz
9. www. Lex.uz
10. [www.uzbektourism.uz](http://www.uzbektourism.uz) va Tourism in Uzbekistan 2022 statistik to‘plami ma’lumotlari.